O‘QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI

Ummatova Nigora., Mahalla va oila ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinflardagi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va uni korreksiya qilish pedagogik va yosh davrlari psixologiyasidagi dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so‘zlar. past o‘zlashtirish, aqliy rivojlanish, psixodiagnostika, psixokorreksiya, motivasiya.

Annotation. Studying the psychological characteristics of low-achieving students in primary grades and their correction is one of the current problems in pedagogical and youth psychology.

Key words. low achievement, mental development, psychodiagnostics, psychocorrection, motivation.

O‘quvchilarni o‘qitishning motivatsion sohasi turtkilar, ideallar, qadriyatlar yo‘nalishi, maqsadlar, qiziqishlar, ehtiyojlar va xususan faoliyat va xulq-atvor motivlaridan tashkil topgandir. Operatsional soha o‘ziga o‘zi baho va o‘zini nazorat qila bilish bilan birgalikda, o‘quv harakatlari yo‘llari va o‘quv faoliyati usullari xarakteristikasi, shu bilan birgalikda tafakkur operatsiyalari va aqliy faoliyat metodlari, shakllarini o‘z ichiga oladi. O‘qishda orqada qolishlik bolaning o‘quv jarayoni bosqichlaridan birida o‘zlashtira olmaslikda ifodalanuvchi maktab talablarini bajara olmaslik sifatida belgilanadi.

Ta’limda va aqliy rivojlanishda orqada qoluvchi bolalarning operatsional va motivatsion sohalarining o‘ziga xosligini ko‘rib chiqamiz. Ko‘p sonli olimlarning psixologik tadqiqotlari yoshiga nisbatan rivojlanishda sezilarli darajada ortda qoluvchi bolalar va o‘smirlar rivojlanishining individual variantlari borligini ko‘rsatdi.

Z.I.Kalmokova o‘z tadqiqotlarida turg‘un past o‘zlashtiruvchi bolalarni o‘rganib chiqdi. U tadqiqot natijalaridan kelib chiqib o‘quvchilarning psixik rivojlanishini turli tuman variantlarini ulardagi u yoki bu bilish faoliyati komponentlari shakllanishining turli darajalari bilan bog‘ladi.

Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar haqida gapirganda, o‘qishda orqada qoluvchi bolalardagi bilish jarayonlari xarakteristikasiga diqqat qaratish kerak. Bilish faoliyatining qaysi komponentlari past o‘zlashtirishning asosiy sababi bo‘lib chiqishiga ko‘ra quyidagi tiplarga bo‘linadi: pedagogik qarovsizlar; intellektual sustlar; uquvchanligi past o‘quvchilar.

Pedagogik qarovsizlik - bolaning bilish va aqlning intellektual sifatlari shakllanayotgan yosh bosqichida salbiy ijtimoiy – pedagogik sharoitning paydo bo‘lishi natijasida kelib chiqadi.

Boshqalardan farqli o‘laroq bunday bolalar boshlang‘ich sinf davrlarida o‘quv topshiriqlarini qiyinchiliksiz o‘zlashtirishgan, ularni maqtashgan, boshqalarga namuna qilib ko‘rsatilgani uchun o‘ziga bo‘lgan baho ko‘tarilib ketishiga sabab bo‘lgan. Ta’lim jarayonini juda osonligi oqibatida o‘quvchilar qiyinchiliklarni yengib o‘tishga o‘rganmaganlar, sodda topshiriqlar ularning bilim olish motivatsiyalarini rag‘batlantirmagan va intellektual ishga qobiliyatlarini shakllantirmagan.

Natijalar va muxokama. Intellekti sust bolalar. Albatta intellekti sust bolalarni past o‘zlashtiruvchi deb aytib bo‘lmaydi, aksi ham bo‘lishi mumkin, masalan ular orasida aqliy jihatdan qobiliyatli o‘quvchilarni ham uchratish mumkin. L.V.Orlova past o‘zlashtiruvchi va intellekti sust bolalar muammolari qisman bir-biriga mos deb hisoblaydi.

Natijalar va muxokama. Aklning yuzakiligi – tashqi, ayrim belgilarni ajratishda, ular o‘rtasidagi tasodifiy aloqani o‘rnatilishida namoyon bo‘ladi, bu esa umumlashtirishning past darajasini ifodalaydi. Aqlning sayozligi o‘quvchi uchun matn va reja tuzishda, matnni qisqacha gapirib berishda qiyinchilik tug‘diradi. U gapirganida asosiysi qolib, ikkinchi darajadagi detallarga ahamiyat beradi.

Aqlning inertligi - tasodifiy vaziyatlarga javob berolmay “qotib kolish”ida, bir usuldan keyingisiga o‘tishdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishida, biron- bir fikrga kelishda odatga aylangan bir qolipdan chiqib ketolmasligida ko‘rinadi. Bunday o‘quvchilar intellektual zo‘riqish talab qilmaydigan, o‘zgarmaydigan, bir qolipdagi harakatlarni bajarishni yoqtirishadi.

Aqlning beqarorligi - mo‘ljalni asoslanmagan tarzda o‘zgartirish, tasodifiy belgilar, assotsiatsiyalar ta’siri ostida bitta harakatlar tizimidan boshqasiga o‘tish. Bu jarayon zamirida shakllangan aloqalarning tormozlanishi yotishi yoki toliqish ta’sirida bo‘lishi mumkin.

Aqlning taqlidchanligi - uquvchanligi past o‘quvchilarni ta’riflaganda N.A. Menchinskaya shuni ta’kidlaydiki, ushbu o‘quvchilar tengqurlariga nisbatan past natijalarga erishishligini sababi ularni tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan vositali xotirani ishlata bilmasligidadir, u esa intuitiv – amaliy va so‘z – mantiqiy tafakkurning rivojlanganlik darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan xarakterlanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilarda past o‘zlashtirish sabablarini erta aniqlash, toifalarga ajratish, psixodiagnostik, psixokorreksion va shakllantiruvchi chora – tadbirlarni izchillikda olib borish, ayniqsa pedagoglar, o‘quvchining ota – onasi, oila a’zolarini jalb qilish ishning yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Yuqorida biz keltirgan o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning tiplarini bilish o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishda katta yordam beradi.